

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi  
“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi”  
davlat muassasasining  
NIZOMI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-oktabrdagi “Agrosanoat majmuida davlat nazorati tizimini yanada takomillashtirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 164-sonli Farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi **“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” davlat muassasasining** (keyingi o‘rinlarda – Markaz) huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Markaz va uning hududiy filiallari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4241-son qarori asosida tashkil etilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Markazning muassisasi, uning maqomini belgilaydigan qonun hujjatlariga muvofiq vakolati doirasida davlat muassasasini ta’sis etishga vakil qilingan davlat organi hisoblanadi (keyingi o‘rinlarda – Muassis).

Markaz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) nazorat funksiyalarini amalga oshirish sohasida xizmatlar ko‘rsatadigan davlat muassasasi hisoblanadi.

Markaziy apparat, markaziy laboratoriylar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy filiallar Markazning mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tarkibiy bo‘linmalari hisoblanadi.

4. Mazkur Nizom Muassis tomonidan tasdiqlanib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan kundan Markazning ta’sis hujjati hisoblanadi.

5. Markaz yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining alohida mulkiga, mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va davlat tilidagi o‘z nomi yozilgan muhr va blankalarga, milliy va xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

6. Markazning rasmiy to‘liq va qisqartirilgan nomi:

a) Davlat tilida:

Lotin yozuvida – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi – “O‘zagroinspeksiya” qoshidagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” DM.

Kirill yozuvida – Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспексияси қошидаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини баҳолаш маркази” давлат муассасаси, qisqartirilgan nomi – “Ўзагроинспекция” қошидаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини баҳолаш маркази” DM.

b) Rus tilida: — Государственное учреждение «Центр оценки качества сельскохозяйственной продукции» при Инспекции по контролю за агропромышленным комплексом при Кабинете Министров Республики Узбекистан, qisqartirilgan nomi ГУ «Центр оценки качества сельскохозяйственной продукции» при «Узагроинспекции»;

d) Ingliz tilida: — State company "Center for evaluation of the quality of agricultural products" under the Inspection on the Control over the Agro-Industrial Complex under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

7. Markazning joylashgan joyi (pochta manzili): 100011, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Xadra mavzesi, 27-uy.

## **2-bob. Markazning yuridik maqomi**

8. Markaz – davlat mulkidagi, o‘ziga operativ boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat muassasasi shaklidagi tashkilot hisoblanadi. Markaz o‘ziga biriktirilgan mulkdan qonun hujjatlarida belgilangan doirada, o‘z faoliyati maqsadlari va vazifalariga, Muassisning topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi.

9. Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zagroinspeksiya” hay’atining qarorlari va buyruqlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga amal qiladi.

10. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

11. Markazda Muassis tomonidan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmaga asosan markaziy apparat, sertifikatlashtirish organlari, markaziy laboratoriyalar, hududiy filiallar, boshqarma, bo‘lim va sho’balar faoliyat ko‘rsatadi.

12. Markaz o‘z faoliyati yuzasidan Muassis oldida hisobdordir.

13. Markaz faoliyati Muassis tomonidan nazorat qilinadi va muvofiqlashtiriladi.

### **3-bob. Markazning vazifalari va funksiyalari**

14. Agrosanoat majmuida davlat xizmatlarini ko'rsatish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan ilmiy va tajriba-eksperimental tadqiqotlarni olib borish, Markazning ilmiy salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va yangi turdag'i xizmat turlarini keng joriy etish ustuvor maqsadidir.

15. Xizmatlar ko'rsatish orqali foyda olish, muassisning topshiriqlari ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, shuningdek ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish Markaz faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

16. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish, sotish hamda xizmatlar ko'rsatish;

Markaz vakolati doirasiga muvofiq, Agrosanoat majmui mahsulotlari (paxta tolasi, momig'i, texnik chigit, momiq paxta, don, dukkakli-don va moyli ekinlar, qishloq xo'jaligi ekinlarining barcha turdag'i urug'lari va ko'chatlari, shuningdek un, yorma, kepak, oraliq mahsulotlar va chiqindilar hamda agrosanoat majmuining boshqa mahsulotlari (keyingi o'rinnarda – mahsulotlar) sinovlarini tashkil etish hamda o'tkazish;

mahsulotlarga muvofiqlik va sifat sertifikatlari, sinov bayonnomalari, tahlil natijalari hamda baholash xulosalarini berish ishlarini bajarish;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshirish;

akkreditatsiya doirasiga muvofiq sinov jihozlari va o'chov vositalarini metrologik attestatsiyadan va qiyoslash ko'rigidan o'tkazish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

paxta tolasi shiradorligini aniqlash, paxta tolasi va momig'i toyulari massasini o'chash xizmatlarini amalga oshirish;

paxta tolasi, momig'i va texnik chigit mahsulotlarining sifatini aniqlash va sifat sertifikatlarini rasmiylashtirish;

paxta tozalash va yog'-moy sanoati korxonalari, paxta mahsulotlarining xaridorlari hamda boshqa tashkilotlar uchun sertifikatlanadigan paxta mahsulotlari tashqi ko'rinishi namunalarini tayyorlash, restavratsiya qilish va ular bilan ta'minlash;

eksport-import va respublika ichidagi tashishlarda don va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosili, ularning urug'lari hamda ularda qayta ishslashdan olingan mahsulotlarning sifatini aniqlash hamda sifat sertifikatlarini rasmiylashtirish;

don saqlayotgan korxonalarda uning sifati va miqdori bo'yicha to'g'ri saqlanishini aniqlash;

qishloq xo'jaligi ekinlari navlarining genetik sofligi va urug'lari sifatini, akkreditatsiya sohasiga muvofiq barcha turdag'i qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ekinlari urug'lari, daraxt, buta va manzarali ko'chatlari, urug' va danakli meva ko'chatlari, subtropik va sitrus meva ko'chatlarini sifatini aniqlash, sertifikatlashtirish;

import qilinayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘lik va ko‘chat materiallarida geni modifikatsiyalangan organizm (GMO) va kasalliklarning mavjudligini aniqlash;

rayonlashtirilgan va istiqbolli qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarining navdorligini (nav sofliji) tuproqda (tajriba maydonida) baholash;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini etishtirishda urug‘chilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari, klasterlar, ilmiy muassasalar va boshqa xo‘jaliklarga shartnoma asosida amaliy yordam ko‘rsatish;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini jamg‘arish va saqlash jarayonlarida ekinboplik sifatlarini shartnoma asosida aniqlash;

urug‘lik tayyorlovchi sub’ektlarda qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini tozalash-saralash (urug‘lik chigitda – tuksizlantirish), kalibrlash, dorilash va qadoqlash jarayonlarida har 2 (ikki) soatda zaruriy ekinboplik sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;

qishloq xo‘jaligini davlat tomonida qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining tijorat vakili tomonidan bug‘doy etishtirivchilardan xarid qilinadigan bug‘doyni qabul qilish va sotish jarayonlarida standart talablariga ko‘ra sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha (muvoqqlik sertifikati) hamda bug‘doy sinflari (sifat sertifikati) bo‘yicha sertifikatlashtirish sinovlarini amalga oshirish;

talab qilinadigan aniqlik bo‘yicha o‘lchovlarning bir xillagini ta’minalash;

paxta tolasini klassifikatsiyalash, sertifikatlash va marketing yo‘nalishi hamda qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texniklarini, servis xizmat ko‘rsatish bo‘yicha agrosanoat majmui sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirilishini ta’minalash;

agrosanoat majmui sohasiga oid faoliyatni ommaviy axborot vositalari internet tarmog‘i orqali targ‘ibot qilish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning buyurtmasiga ko‘ra shartnoma asosida inspeksiya nazorat funksiyalarini amalga oshirish sohasida xizmatlar ko‘rsatish;

“O‘zagroinspeksiya” bilan kelishilgan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlar sifatini baholash sohasiga xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ko‘rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirishga va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish;

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

17. Markaz o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiq mahsulotlarni baholash bo‘yicha sinovlar o‘tkazadi;

oligan sinov natijalarini o‘rganadi, muvofiqlik sertifikati va sifat sertifikatlarini berish yoki uni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

sinov natijalariga ko‘ra, nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarga ushbu haqida dalolatnama, tahlil natijasi va sinov bayonnomasi taqdim etadi;

akkreditatsiya doirasiga muvofiq, o‘tkazilgan metrologik attestatsiyalash va qiyoslash ishlari natijasi bo‘yicha sinov jihozlariga sertifikat rasmiylashtiradi;

paxta tolasi va momig‘i toydarini etkazib beruvchi bilan birlashtirishda toyning og‘irligini tortib ko‘radi va toyning og‘irligi yuzasidan dalolatnama rasmiylashtiradi;

paxta tolasi, momig‘i va texnik chigit mahsulotlarining sifatini aniqlaydi va sifat sertifikatlarini rasmiylashtiradi;

paxta tolasi, momig‘i va texnik chigit mahsulotlarining tashqi ko‘rinishi namunalarini iste’molchilarning buyurtmalariga asosan ta’mirlaydi hamda yangidan tayyorlaydi;

urug‘liklarni sinovlardan o‘tkazadi, elita urug‘chilik xo‘jaliklarida etishtirilgan paxta tolasi namunalarining texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlaydi, urug‘lik paxta va boshoqli don ekinlarining navdorligini (nav sofligini) tuproqda (tajriba maydonida) baholash ishlarini amalga oshiradi;

mahsulotlarning sinash usullarini ishlab chiqadi, zarur hollarda manfaatdor idoralar va tashkilotlar bilan hamkorlikda tadbirdi amalga oshiradi;

mahsulotlar uchun texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlarni ishlab chiqish jarayonlarida ishtirok etadi;

sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarining genetik sofligi va urug‘lari sifatini, akkreditatsiya sohasiga muvofiq barcha turdagilari qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ekinlari urug‘lari, daraxt, buta va manzarali ko‘chatlari, urug‘ va danakli meva ko‘chatlari, subtropik va sitrus meva ko‘chatlarini sifatini aniqlaydi, sertifikatlashtiradi;

urug‘chilik sohasida joriy etilgan standart (milliy, davlatlararo, xalqaro va boshqa)lar asosida urug‘lar sifatini aniqlaydi, sinovlar natijasiga hamda qonunchilik hujjatlariga ko‘ra belgilangan tartibda sinov bayonnomasi, tahlil natija, xulosa, muvofiqlik (sifat) sertifikatlarini rasmiylashtiradi;

import qilinayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘lik va ko‘chat materiallarida geni modifikatsiyalangan organizm (GMO) va kasalliklarning mavjudligini aniqlaydi;

mahsulotlarning klassifikatsiyalash va marketing yo‘nalishi hamda qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texniklarini boshqarish huquqini berish, servis xizmat ko‘rsatish bo‘yicha agrosanoat majmui sohasida mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirilishini ta’minlaydi;

qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘liklarini etishtiruvchi fermer xo‘jaliklari, klasterlar va boshqa urug‘chilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarning urug‘lik maydonlarini monitoring qilish, aprobatasiya ko‘rigi va sifatli urug‘lik jamg‘arish tadbirdariga tayyorlashda shartnoma asosida amaliy yordam ko‘rsatadi hamda zaruriyat tug‘ilganda aprobatasiya ko‘rigida komissiya tarkibida ishtirok etadi;

yuqori avlodli urug‘liklar etishtiruvchi ilmiy muassasalar maydonlarida monitoring o‘tkazish, tayyorlangan urug‘liklardan namunalar tanlab olish va tahlil o‘tkazish ishlarini amalga oshiradi;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini sertifikatlaydi, ularga standart talablari bo‘yicha yorliqlarni tayyorlaydi va urug‘lik ishlab chiqaruvchilarga buyurtma asosida yetkazib beradi;

jamg‘arilgan urug‘lik boshoqli don materiallarini yashovchanligini aniqlash;

respublikada jamg‘arilgan urug‘lik paxta g‘aramlarining ekinboplilik sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha dastlabki prognoz tahlillarini shartnoma asosida amalga oshiradi;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini jamg‘arish va saqlash jarayonlarida ekinboplilik sifatlarini aniqlaydi;

urug‘lik tayyorlovchi sub’ektlarda qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini tozalash-saralash (urug‘lik chigitda – tuksizlantirish), kalibrlash, dorilash va qadoqlash jarayonlarida har 2 (ikki) soatda zaruriy ekinboplilik sifat ko‘rsatkichlarini aniqlaydi;

sohasiga xalqaro ilg‘or tashkilotlar tajribasini o‘rganish, ko‘rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirishga hamda yangi innovasion texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashadi;

xalqaro hamkorlikni kengaytiradi, o‘zaro tajriba almashishga, soha doirasida xorijiy mamlakatlarda mutaxassislar malakasi oshirishni amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratadi va tashkil etadi;

xalqaro a‘zo mamlakatlarning normativ hujjatlarni o‘rganadi, va maqbul istiqbolli tajribalarni sohaga joriy etilishiga va tegishli anjumanlarda mutaxassislar ishtirokiga ko‘maklashadi.

xorijiy tashkilotlar bilan “O‘zagroinspeksiya” ni xabardor qilgan holda hamkorlik o‘rnatadi, kelishuv va memorandumlar imzolaydi hamda amalga oshiradi;

xorijiy hamkorlar bilan o‘z sohasi bo‘yicha huquqiy axborot almashadi;

sohada ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan ilmiy tajriba-eksperimental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro grandlar, xalqaro institut, tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarning grantlari hamda homiylik hayriyalari texnik ko‘maklarida qatnashadi.

18. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan va ta’qiqlanmagan o‘z faoliyatiga oid va boshqa vazifa hamda funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya, akkreditatsiya va ma’qullah) talab qilinadigan faoliyat turlari tegishli maxsus ruxsatnoma (litsenziya, akkreditatsiya va ma’qullah) olinganidan so‘ng amalga oshiriladi.

19. Quyidagilar Markaz hududiy filiallarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Markazga yuklatilgan vazifa va funksiyalar ijrosini hududlarda ta’minalash;

Markazning vakolati doirasida amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq mahsulotlarning barcha turdagи sinovlarini o‘tkazish;

o‘rnatilgan tartibda mahsulotlardan sinov uchun namunalar tanlab olish, identifikasiya qilish va sinovdan o‘tkazish, zarur hollarda mahsulot namunalarini

qo'shimcha sinovlardan o'tkazish uchun Markazning tegishli laboratoriylariga yuborish;

mahsulotlarga tegishliligi bo'yicha muvofiqlik sertifikati, sinov bayonnomalari, tahlil natija, xulosa va sifat sertifikatlari berish ishlarini bajarish;

sinovlar natijalarining aniqligi, xolisligi va ishonchlilagini ta'minlash;

yangi hosilga tegishli tipik to'dalardan olingan namunalar bo'yicha boshoqli don ekinlarining tovar va texnologik xususiyatlarini o'rganish;

sinovlar natijalari va hisobot ma'lumotlarini o'z vaqtida hamda haqqoniy taqdim etish;

vakolat doirasida mahsulot sifatiga tegishli munozarali masalalarini hal qilish;

korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

20. Markazning tarkibi tarmoqlari, sertifikatlashtirish organlari, markaziy laboratoriylar va hududiy filiallar boshliqlari mazkur Nizom bilan Markazga yuklatilgan vazifa va funksiyalari hamda majburiyatlarining bajarilishi, o'zining harakatlari (harakatsizligi) oqibatida Markazga yetkazilgan zararlar, shu jumladan Markaz tomonidan biriktirilgan davlat mulki va tovar-moddiy boyliklarining yo'qotilishi hamda maqsadsiz ishlatilishi uchun to'liq moddiy javobgar shaxs sifatida shaxsan javobgar hisoblanadi.

21. Markaz o'zining vazifa va funksiyalarini markaziy apparat, markaziy laboratoriylar, sertifikatlashtirish organlari va hududiy filiallar orqali amalga oshiradi.

ish faoliyatida o'ziga tegishli sohalar doirasida shartnomalar tuzadi va amaldagi narxnama (tarif) va shartnomada asosida xizmatlar ko'rsatadi.

22. Markaz O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'limgan boshqa faoliyat turlari bilan ham shug'ullanishi mumkin.

23. Markaz amaldagi qonunlarga ko'ra maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) olish talab etiladigan faoliyat turlari bilan faqat tegishli ruxsatnomasi (litsenziya) olgan holda shug'ullanadi.

#### **4-bob. Markazning huquq va majburiyatları**

23. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

mahsulotlarni sinash natijalariga ko'ra, sinov bayonnomalari, tahlil natijalari va baholash xulosalari, muvofiqlik va sifat sertifikatlarini o'rnatilgan tartibda berish;

mavsum boshidan don va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni qabul qilish, saqlash va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan don sig'imlarini (ombor, elevator, ayvon va maydonlar) texnik holatini o'rganish, baholash va tegishli xulosalarni berish;

yagona o'lchov birligini ta'minlash va o'rnatilgan qoidalarga asosan metrologik attestatsiyalashni va qiyoslash ishlarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni bajarish;

o'rnatilgan tartibda mahsulotlardan sinov uchun namunalar tanlab olish, identifikatsiya qilish va tanlab olingan namunalarni lozim bo'lgan hollarda buyurtmachilarining mutaxassislari ishtirokida sinovlar o'tkazish, zarur hollarda

mahsulot namunalarini qo'shimcha sinovlardan o'tkazish uchun korxonaning tegishli laboratoriyalariga yuborish;

ayni bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning sertifikatlash organlari bilan "O'zagroinspeksiya" ni xabardor qilgan holda hamkorlik qilish;

mahsulotlar sifatini tahlil qilish, natijalari yuzasidan hujjatlarni tayyorlash va texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlar talabining buzilishi bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli korxona va tashkilotlarga tavsiya va takliflar kiritish;

nomuvofiqlik aniqlanganda, berilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlikni tasdiqlash belgilari amal qilishini to'xtatish va bekor qilish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

ishlab chiqarishni o'rganishda yoki mahsulotni sinov natijalariga ko'ra, nomuvofiqliklar aniqlanganda, muvofiqlik sertifikati berishni rad etish;

sertifikatlash tizimining axborot va uslubiy hujjatlarini takomillashtirish yoki ishlab chiqish bo'yicha takliflar berish, standartlashtirish va metrologiya sohasida normativ-huquqiy hujjatlar tizimini yaratishda ishtirok etish;

xorijdan kirib kelayotgan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot turining respublikada tartibga solish bo'yicha normativ hujjatlari bo'limganda, uning sifati va xavfsizligi bo'yicha sertifikatlash sinovlari turdosh mahsulotlarga bo'lган talablar yoki ularni identifikatsiyadan o'tkazgan holda sanitarn-epidemilogik xulosa asosida amalga oshirish;

O'zagroinspeksiya bilan kelishilgan holda o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan qurilish ishlarini amalga oshirish, binolarni xarid qilish va belgilangan tartibda sotish hamda ularni ijaraga berishni amalga oshirish;

o'z vakolati doirasida davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun tavsiyaviy bo'lgan, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda uslubiy hujjatlarni qabul qilish;

qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

faoliyat turlari bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish. Bunda: Markaz tomonidan faoliyat turlari bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tariflar, narxlar va qiymatlarni mustaqil ravishda belgilash;

erkin bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, raqobatbardosh xizmatlarni ko'rsatish uchun imtiyozli tariflarni ishlab chiqish va qo'llash;

o'z faoliyat sohasi bo'yicha shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, mahsulot yetkazib berish;

Markaz xodimlari tomonidan o'z sohasida ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag'batlantirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

O'zagroinspeksiyaning byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlovlар natijalari bo'yicha ajratiladigan grantlar, xalqaro institutlar va tashkilotlar, yuridik va jismoniy

shaxslarning grantlari va homiylik xayriyalari, faoliyat turlari bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan tushadigan mablag‘lar, qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan hamda tegishli hisob raqamlarida joylashgan boshqa mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit raqamlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish. Bunda, mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadni moddiy-texnik bazani, ijtimoiy rivojlantirishga va xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga yo‘naltirgan holda Markazning tegishli hisob raqamlariga o‘tkazish;

jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z faoliyatiga taalluqli murojaatlarini ko‘rib chiqish;

Markazning vakolatlari doirasida xorijiy davlatlar organlari va xalqaro tashkilotlar bilan O‘zagroinspeksiyani xabardor qilgan holda aloqalar o‘rnatish.

Markaz o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mulk bilan javob beradi.

Muassis Markaz mulki yetarli bo‘lmaganda Markaz majburiyatlari bo‘yicha subsidiar tartibda javob beradi.

24. Markaz muassis bilan kelishuv bo‘yicha, qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda vakolatxonalar ochishi va hududiy filiallar qoshida laboratoriyalar tashkil etishi mumkin.

Laboratoriya yoki vakolatxona tashkil etilganidan keyin bir hafta muddatda Markaz bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligini yoki uning hududiy organini xabardor qilishi shart.

25. Yangi tashkil etilgan vakolatxona va laboratoriyalar Markaz nomidan, tasdiqlangan nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadi.

26. Vakolatxona yoki yangi tashkil etilgan laboratoriya rahbari Markaz direktori tomonidan tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko‘rsatadi. Vakolatxona yoki laboratoriya rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilgan taqdirda ishonchnoma Markaz direktori tomonidan bekor qilinadi.

27. Markazning javobgarligi:

o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi;

faoliyatga bevosita taalluqli bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi;

sohani (tarmoqni) rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar, rejalar va boshqa dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirilishi;

laboratoriya va vakolatxona majburiyatlari bo‘yicha;

o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mulk bilan javob beradi.

Muassis Markaz mulki yetarli bo‘lmaganda Markaz majburiyatlari bo‘yicha subsidiar tartibda javob beradi.

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

28. Markaz muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

## **5-bob. Muassisning huquq va majburiyatlari**

29. Muassis qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

Markaz faoliyatining maqsadi, predmeti, turlarini belgilash;

Markazning Nizomini tasdiqlash, o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish;

Markazni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;

Markaz mulkiga oid bitimlarni haqiqiy emas deb e’tirof etish to‘g‘risida da’vo bilan sudga murojaat qilish;

Markazning ortiqcha, foydalanilmayotgan yoxud belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan mulkini tasarruf etish;

zarurat bo‘lganda Vazirlar Mahkamasiga davlat muassasasini xususiylashtirish yoki davlat tasarrufidan chiqarish bo‘yicha takliflar kiritish;

Markazga yetkazilgan zararlarni undirish to‘g‘risida Markaz direktoriga nisbatan da’vo taqdim etish;

### 30. Muassis quyidagilarga majbur:

Markaz tashkiliy tuzilmasi, “Xodimlar mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlanadirish to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash;

Markaz direktori va o‘rinbosarlarini tayinlash, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ular bilan mehnat shartnomasini tuzish;

Markaz direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muddatidan oldin to‘xtatish;

davlat muassasasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtidan boshlab uch oy mobaynida Markazning ustav fondini unga davlat mulkini tezkorlik bilan boshqarish uchun berish yo‘li bilan shakllantirish;

har yili Markazning ijro etuvchi organ faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichini nazarda tutuvchi Markazning smetasini tasdiqlash, har chorakda ijro etuvchi organning uning bajarilishi haqidagi hisobotini eshitish;

bozor qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari miqdorida oshadigan mol-mulkini, mulkni tasarruf etish uchun Markazning ijro etuvchi organiga ruxsatnomalar berish to‘g‘risidagi qarorni tegishli ravishda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmasi bilan kelishish;

Markazga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishini va saqlanishini, shuningdek uning begonalashtirilishini nazorat qilish;

Markazning yillik yig‘ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkazilishini ta’minalash.

### **6-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish**

31. Markaz o‘z faoliyatida bevosita Muassisiga bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.

32. Markaz faoliyatiga O‘zagronspeksiya boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Direktor umumiy rahbarlik qiladi.

33. Markaz direktorining huquqlari:

Muassis tomonidan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmaga asosan Markaz xodimlarining shtat bo'yicha soni va ularning ish haqi miqdorlarini Muassis bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

Markazning "Xodimlar mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizomini Muassis hamda Kasaba uyushmasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

Markazning moddiy-texnik ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish, xodimlarning mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish belgilangan mablag'lar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlovlardan natijalari bo'yicha ajratiladigan grantlar, xalqaro institutlar va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarning grantlari va homiylik xayriyalari, faoliyat turlari bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan tushadigan mablag'lar hamda qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi;

Markaz xodimlarining ish haqi - lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalardan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat.

Markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalash quyidagilardan:

xizmat vazifasini sidqidildan va samarali bajarib kelayotgan yuqori malakali, tashabbuskor xodimlarga yuqori malakasi uchun lavozim maoshining 200 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda belgilanadigan shaxsiy ustamalar;

alohiba mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshiga qonun hujjatlarida belgilangan rag'batlantiruvchi qo'shimcha haq va ustamalarni hisoblashda lavozim maoshi tarkibiga kiritiladigan 50 foiz miqdorida ustama;

bayramlarda va muhim sanalarda bir martalik pul mukofoti;

Markazning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda, oy, chorak va yil yakunlari bilan bir martalik pul mukofoti;

xodimlar faoliyatini individual baholashda, ishida muvaffaqiyatlarga yerishganligi va muhim topshiriqlarni bajarganligi uchun lavozim maoshining 200 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda mukofot;

ovqat puli va yo'lkira xarajatlari uchun kompensatsiya to'lovlar;

moddiy yordam va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa to'lovlardan iborat.

hududiy filial rahbarlariga beriladigan Ishonchnomani tasdiqlaydi;

Markaz direktori tasdiqlangan tashkiliy tuzilmada belgilangan xodimlar soni doirasida shtatlar jadvaliga o'zgartirish kiritadi hamda Muassis bilan kelishgan holda xodimlarning shtatlar bo'yicha soni va ularning ish haqi miqdorlarini tasdiqlaydi.

zarurat bo'lganda, Muassis tomonidan tasdiqlangan tashkiliy tuzulmani o'zgartirmagan holda, shtatlar jadvaliga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadi.

Direktor Markazning yakka ijro etuvchi organi hisoblanadi va Markaz oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etadi, Markaz nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko‘rsatadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, belgilangan tartibda Markaz nomidan bitimlarni amalga oshiradi, xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o‘zgartiradi va to‘xtatadi, zarurat bo‘lganda Markazning moliyaviy ahvoldidan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida fuqarolarni ishga qabul qiladi, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘radi, buyruqlar chiqaradi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi, pul, moddiy va boshqa qiymatliklarni olish va chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlarni imzolashi mumkin bo‘lgan shaxslarning ro‘yxatini tasdiqlaydi, Markaz ixtiyorida qoladigan sof foyda hisobiga zaxira fondi va boshqa fondlarni tashkil etadi, shakllantirilgan Markaz fondlarining maqsadli ishlatalishini ta’minlaydi, ularning umumiyligi miqdorlari doirasida muvofiqlashtiradi hamda Markaz faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Direktor muassis oldida Markaz Nizomida belgilangan tartibda Markaz faoliyati to‘g‘risida hisob beradi.

Markaz direktori o‘z huquqlarini amalga oshirishda va vazifalarini bajarishda Markaz manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi kerak hamda normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmolari, Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari hamda boshqa qonun hujjatlari bilan yuklangan vazifalarning bajarilishini tashkil etish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish, faoliyat soha yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rribbosarlari va boshqa mansabdar shaxslar faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat siri bilan bog‘liq qonun hujjatlari talablariga rioya etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlarning, ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnat huquqlari va munosabatlaridan hamda ularga tenglashtirilgan to‘lovlardan kelib chiqadigan barcha talablarning qondirilishi, faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlar uchun pul mablag‘larining o‘tkazilmaganligi, o‘zining harakati (harakatsizligi) tufayli, shu jumladan Markazga berilgan davlat mulki yo‘qolgan taqdirda Markazga etkazilgan zararlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

34. Direktor 2 ta o‘rribbosarga ega va ular “O‘zagronspeksiya” boshlig‘ining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Markazning hududiy filiallar boshliqlari Inspeksiya bilan kelishgan xolda, Markaz direktori tomonidan lavozimga nayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Markaziy laboratoriyalari boshliqlari va boshqa xodimlari mehnat qonunchiligidagi belgilangan tartibda Markaz direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hududiy filiallar boshliqlari Markaz tomonidan belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida faoliyat yuritadi.

35. Direktor bo‘limgan vaqtida uning vakolatlari buyruq bilan vazifa yuklatilgan o‘rnbosari tomonidan amalga oshiriladi.

36. Markaz direktori o‘rnbosarlari va tarkibiy bo‘linmalarining faoliyati direktor tomonidan tasdiqlanadigan vazifalar taqsimotida belgilanadi.

37. Markaz o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga, ushbu Nizomga hamda Muassis tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq tadbirkorlik faoliyatining barcha masalalarini, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyati masalalarini hal etadi;

o‘z vakolatlari doirasida Markaz faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi va hal etadi;

Markaz direktori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

Muassisni habardor qilgan holda o‘zining vazifalarini vaqtincha bajarishni o‘rnbosarlariga yuklatish yuzasidan buyruqlar qabul qiladi.

### 38. Markaz direktorining majburiyatlari:

Markaz oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;

Markazning asosiy faoliyatini takomillashtirish, boshqarishning eng zamonaviy usullarini joriy etishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Markaz mulkini amaldagi qonunchilik va Muassis tomonidan unga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etish;

Markazning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqarish;

jamoa shartnomasini kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlash hamda unda xodimlar uchun to‘lanadigan ustamalar, joriy mukofotlar, qo‘sishimcha va bir yo‘la beriladigan to‘lovlar, imtiyozlar, ish stoji, oy, chorak va yil yakuni bo‘yicha to‘lovlarini (rag‘batlantirish) qayd etish, ushbu to‘lovlarini Markazning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda bajarilishini ta’minlash;

### 39. Markaz direktori quyidagilarga javobgar:

Markaz direktori o‘z huquqlarini amalga oshirish va vazifalarni bajarishda Markaz manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar, ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi barcha talablar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarining qondirilishi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq ehtiyojlar uchun mablag‘larni o‘z vaqtida o‘tkazilishiga, Markazning hatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan, jumladan, Markazga berilgan davlat mol-mulki yo‘qolgan

taqdirda, yetkazilgan zarar yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Markaz direktori zimmasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi, shuningdek Markazga berilgan davlat mulkining saqlanishi va undan maqsadli foydalanilishi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

40. Markaz direktori Muassis tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod yetiladigan o‘rinbosarlarga ega bo‘ladi.

#### 41. Direktor o‘rinbosarlari:

tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi, ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etadi;

Muassis qarori, Markaz direktorining buyruq va topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi;

tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

tarkibiy bo‘linmalar faoliyati masalalari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi va ularni ko‘rib chiqish uchun direktorga kiritadi;

Markaz direktoriga Markazning tarkibiy bo‘linmalarida xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha takliflarni kiritish, ularning kasbiy mahorati, malakasi, amaliy tajribasi, ishchanlik va axloqiy fazilatlarini yuqori darajada ta’minalash, ularning kasbiy malakalarini oshirish, tarkibiy bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirishda amaliy yordam beradi;

Markazning tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyatini samaradorligi va natijadorligini tizimli tanqidiy tahlil qiladi, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitadi, yakunlar bo‘yicha zarur choralarini ko‘radi.

Markaz direktori vaqtincha bo‘limganda, tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajaradi.

#### **7-bob. “Markaz”ning ustav fondi miqdori**

42. “Markazning ustav fondi o‘zida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun unga muassis tomonidan berilgan mol-mulk va boshqa aktivlar jamini ifodalaydi.

Markaz ustav fondining miqdori 8 255 407 940 (sakkiz milliard ikki yuz ellik besh million to‘rt yuz yetti ming to‘qqiz yuz qirq) so‘nni tashkil qiladi.

Markazning ustav fondini ko‘paytirish va kamaytirish Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, muassisning qarori bo‘yicha amalga oshiriladi.

#### **8-bob. Markazning xo‘jalik faoliyati**

43. Markaz o‘zining tadbirkorlik (tijoriy) faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va rivojlanish istiqbollarini belgilaydi.

44. Markazning boshqa korxonalar, tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan xo‘jalik faoliyatining barcha sohalardagi munosabatlari shartnoma asosida amalga oshiriladi. Markaz shartnoma predmetini tanlashda, majburiyatlarini belgilashda, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo‘lmagan o‘zaro xo‘jalik munosabatlari shartlarini belgilashda erkindir.

45. Markaz tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari hamda tuziladigan shartnoma bilan belgilanadigan narxlar va tariflar (preyskurant, kalkulyatsiya) asosida amalga oshiriladi.

46. Markaz har bir xodimning mehnat daromadini uning shaxsiy mehnat ulushiga qarab, Markaz faoliyatining pirovard natijalarini hisobga olib, o‘rnatilgan tarif stavkalari bo‘yicha belgilaydi.

47. Markaz direktoriga Muassis bilan kelishilgan holda Markazning moliyaviy imkoniyatlari va xo‘jalik faoliyati natijalaridan kelib chiqib, yuqori tarif koeffitsientlarini qo‘llash vakolati beriladi.

48. Markaz xodimlarining mehnatiga haq to‘lashning eng kam miqdori amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

49. Mehnatga haq to‘lashning shakllari, tizimlari va miqdorlari, shuningdek xodimlar daromadlarining boshqa turlari amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

50. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng Markaz ixtiyorida qoladigan mablag‘lar Markaz xodimlarini rag‘batlantirishga, mavjud kreditorlik qarzlarni to‘lashga, moddiy-texnik bazasini, ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishga, bino va inshoatlarni ta’mirlash va qurishga hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa xarajatlarni qoplashga yo‘naltiriladi.

51. Faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk Markazning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

## **9-bob. Markaz faoliyatini baholash mezonlari**

52. Markaz faoliyati samaradorligi muntazam ravishda baholanadi.

53. Markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

Markaz rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish (taqdirlash) yoki intizomiy javobgarlik chorralari;

Markaz faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chorralari ko‘riladi.

54. Markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va metodikasi qonun hujjatlarida belgilanadi.

## **10-bob. Markazning tuzilmasi**

55. Markaz markaziy apparat (markaziy boshqaruv apparati), markaziy laboratoriylar, sertifikatlashtirish organlari va hududiy filiallardan iborat.

56. Markazning hududiy filialri quyidagilar:

<b>T/r</b>	<b>Hududiy filiallar nomi</b>
1.	Qoraqapog‘iston Respublikasi filiali
2.	Andijon viloyati filiali
3.	Buxoro viloyati filiali
4.	Jizzax viloyati filiali
5.	Qashqadaryo viloyati filiali
6.	Navoiy viloyati filiali
7.	Namangan viloyati filiali
8.	Samarqand viloyati filiali
9.	Sirdaryo viloyati filiali
10.	Surxondaryo viloyati filiali
11.	Toshkent viloyati filiali
12.	Farg‘ona viloyati filiali
13.	Xorazm viloyati filiali

57. Hududiy filiallar rahbarlari Markaz direktoriga va uning o‘rnibosarlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadi.

## **11-bob. Yakunlovchi qoida**

58. Markazni qayta tashkil etish va tugatish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kiritildi:


Direktor



J. Karimov

Kelishildi:

Direktor o'rinxbosari



Sh. Pazilov

Moliya - iqtisodiyot  
boshqarmasi boshlig'i



U. Javburiyev

Inson resurslarini rivojlantirish  
va boshqarish sho'basi boshlig'i



A. Komilov

Yuridik byuro boshlig'i



O. Aralov

Devonxona va murojaatlar bilan  
ishlash sho'basi boshlig'i



A. Shaydullayev